



XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 31 - yanvar

VI-49-19-7-104-K/22

Toyloq tuman hokimligi

2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan tuman Moliya bo‘limi mudiri A.Sharipovning hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi “Budjet ma’lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo‘yicha Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining 2021-yil 30-apreldagi “Mahalliy budjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida”gi 155/29-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27, 29-bandlari ijrosini ta’minlash hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, qirq to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining 2021-yil 30-apreldagi “Mahalliy budjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida”gi 155/29-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan tuman hokimligi Moliya

bo'limi mudiri A.Sharipovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar, ya'ni tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlar 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. 2021-yilda o'tkazilgan tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga ko'ra ishlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lar bilan shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag'larga nisbatan bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini tuman hokimligi tashabbusli budjet jamg'armasiga qayta tiklash miqdori to'g'risidagi ma'lumot 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi Moliya bo'limi (A.Sharipov) hamda tuman G'aznachilik bo'linmasi (B.Kubayev) shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag'larga nisbatan bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini tuman hokimligi tashabbusli budjet jamg'armasiga belgilangan tartibda qayta tiklash va tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (N.Raxmatova) tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq budjet" axborot portali hamda tumanning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va keyingi har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilib borish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev), tuman hokimining birinchi o'rinbosari (J.Xujamurodov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengashi Raisi



B.Babonazarov

Халқ депутатлари Тойлоқ туман Кенгашининг
2022 йил 31 январдаги
VI-49-19-7-104-К/22-сон қарорига
1-илова

Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha MA'LUMOT

1-jadval

T/r	Ko'rsatkich nomi	Summa (ming so'm)
1.	Yil boshiga qoldiq	0,0
2.	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga o'tkazilgan mablag'	4 174 800,0
3.	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar	1 770 777,0
3.1.	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag'lar	1 749 636,4
3.2.	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga to'lab berilmagan qoldiq mablag'lar	21 140,6
4	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidagi qoldiq mablag'lar	2 404 023,0

2-jadval

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	ko'rsatkichlar		
			o'lchov birligi	miqdori	sariflangan mablag'lar
1.	Hududiy ichki yo'llar	1	umumiy uzunligi	1070 metr	553 000,00
2.	Umumiyta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini joriy ta'mirlash va jihozlash	1	soni	6 ta	1 196 636,4
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash		umumiy uzunligi		
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish		chiroqlar soni		
8.	Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish		tadbirlar soni		
9.	Boshqa tadbirlar		soni		

Jami:	2	X	X	1 749 636,4
--------------	----------	----------	----------	--------------------

3-

jadval

(ming so'mda)

T/r	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbaalari	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga yo'naltirilishi lozim bo'lgan mablag'lar				Fuqarolar tashabbusi jamg'armasiga haqiqatda o'tkazilgan mablag'lar	Farqi	Izoh
		1 chorak	2 chorak	3 chorak	4 chorak			
1.	Tuman budgetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablag'lar						0,0	
2.	Tuman budgetining qo'shimcha manbaalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	440 904,0	2 485 599,5	2 456 400,0	0,0	4 174 800,0	1 208 103,5	
2.1	erkin qoldiq mablag'lari	330 000,0					330 000,0	
2.2	daromadlarning hisobot choraklari yakunilari bo'yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	110 904,0	2 485 600	2 456 400		4 174 800,0	878 103,5	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 sentabrdagi PQ-5250-sonli qaroriga asosan qo'shimcha 500,0 mln.so'm mablag' ajratilgan
2.3.	Shu jumladan davlat daromadiga o'tkazilgan mullukni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar						0,0	
2.4	elektron savdo maydonchasida er uchastkalariga bo'lgan huquqlarni sotishdan tushgan mablag'lar						0,0	
2.5	budgetdan ajratilgan mablag'lar kamaytirilishi natijasida bo'shab qolgan mablag'lar						0,0	
3.	Jami ajratilgan mablag'lar	440 904,0	2 485 599,5	2 456 400,0	0,0	4 174 800,0	1 208 103,5	X

Халқ депутатлари Тойлоқ туман Кенгашининг
2022 йил 31 январдаги
VI-49-19-7-104-К/22-сон қарорига
2-илова

Фуқаролар ташаббуси жамг'армасидан jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan

МА'LUMOT

T/r	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to'plangan ovozlarning soni	shundan			Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirishi (ming s'm)					
			onlayn ovozlari	oflayn ovozlari	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraqlar	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati*	Ajratilgan mablag'lar	Bajarilgan ishlar uchun to'lab berilgan mablag'lar	Qoldiq mablag'lar
1	0940300017	1410	25	0	1 385	Toyloq tumani O'zbekiston MFY Qo'rg'on qishlog'ida joylashgan qabristonga olib boruvchi 900 metr yo'lga asfalt qoplama yotqizish hamda ushbu 900 metr yo'l chetlarida o'rnatilgan simyog'ochlarga 25 ta ko'cha chiroqlari o'rnatish (900 metr kabel, 1 dona elektro shit, xisoblagich) shuningdek ushbu manzilga 100 metr lotok yotqizish.	401722860182387045204110001	553 000,0	553 000,0	553 000,0	553 000,0	0,000
2	0940300003	1272	4	0	1 268	Toyloq tumani Sochak MFYdagi 2-MTT binosini ta'mirlash	401722860182387091100251001	250 000,0	163 245,0	163 245,0	157 189,0	6 056,0
3	0940300005	1175	3	0	1 172	Toyloq tumani Chorbog'tepa MFYdagi 11-MTT binosini tamirlash	401722860182387091100251008	240 000,0	268 231,0	268 231,0	266 932,8	1 298,2
4	0940300008	950	1	0	949	Toyloq tumani Adas MFYdagi 31-MTT binosini tamirlash	401722860182387091100251009	150 000,0	210 189,0	210 189,0	205 400,1	4 788,9
5	0940300014	744	5	0	739	Toyloq tumani O'zbekiston MFYdagi 6-MTT binosini tamirlash	401722860182387091100251010	100 000,0	151 566,0	151 566,0	151 464,5	101,5
6	940300006	655	0	0	655	Toyloq tumani Sariosiyo MFYdagi 22-MTT binosini tamirlash	401722860182387091100251011	130 000,0	110 216,0	110 216,0	107 711,0	2 505,0
7	0940300007	638	0	0	638	Toyloq tumani Yangi hayot MFYdagi 29-MTT binosini tamirlash	401722860182387091100251012	240 000,0	314 330,0	314 330,0	307 939,1	6 390,9
Жами:								1 663 000,0	1 770 777,0	1 770 777,0	1 749 636,4	21 140,5550